

*Matnazarova Nargiza Azimdjanovna**Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi huzuridagi**Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi**Ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'limi boshlig'i***INKLYUZIV TA'LIMNING HUQUQIY ASOSLARI**

Annotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv ta'limning huquqiy asoslari, uning bugungi kundagi amaliy ahamiyati haqida ma'lumotlar aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: Inklyuziya, inklyuziv ta'lim, huquqiy masalalar, konvensiya, qonun, qaror.

Abstract: This article contains information about the legal basis of inclusive education, its practical importance today.

Key words: Inclusion, inclusive education, legal issues, convention, law, decision.

BMT tomonidan 1948-yilda qabul qilingan "Inson huquqlari" Umumjahon Deklaratsiyasi barcha insonlarning huquq va erkinliklarini, "Ta'lim olish har bir insonning asosiy va ajralmas huquqi" uning barcha moddasi maxsus ehtiyojli insonlarga ham tegishli ekanligini kafolatlaydi.

BMT tomonidan 1989-yilda ishlab chiqilgan "Bolalar huquqlari to'g'risidagi" Konvensiyani ratifikatsiya qilgan davlatlar ko'ngilli tarzda zimmalariga mazkur kelishuv qoidalarini ma'muriy qonunchilik, sud va boshqa chora-tadbirlar yordamida hayotga tadbqiq etish majburiyatini oldilar. Konvensiyadagi barcha huquqlar maxsus yordamga muhtoj bolalar uchun ham tegishli bo'lib, ularga barcha bolalar qatori teng munosabatda bo'lish kafolatlanadi. Kelishuvning 23 va 28-moddalarida ishtirokchi davlatlar barcha bolalarning ilm olish huquqini teng imkoniyatlar asosida amalga oshirishga asta-sekin erishish maqsadida, bepul va majburiy boshlang'ich ta'limni joriy etishlari, nogiron bolaning maxsus ehtiyojlarini aniqlab, uning ijtimoiy hayotga qo'shilishi va shaxs sifatida rivojlana olishiga yetaklovchi vosita hisoblangan ta'lim olishga har tomonlama yordam berilishi lozimligi ko'rsatilgan.

BMTning 2006 yilda qabul qilingan "Nogiron shaxslar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasida nogironlar shaxsiyatini hurmat qilish huquqining tug'ilishi bilan mavjud bo'lishi, nogironlikning kelib chiqishi, darajasidan qat'iy nazar, fuqaro o'z yoshidagi tengdoshlari bilan bir xil huquqlarga ega bo'lishi, ular mumkin qadar to'laqonli yaxshi hayot kechirish huquqiga ham ega ekanliklari ta'kidlanadi.

Koreyaning Inchxon shahrida Butunjahon ta'lim forumida sayyoramizdagi barcha shaxslarning ta'limi hamda zaruriy bilim va malakalarni egallashlarini ta'minlashga qaratilgan 2030-yilga qadar Rivojlanish Deklaratsiyasi hamda Global rejasi qabul qilinib, ularda ta'lim shaxsning rivojlanishi, o'z-o'zini namoyon etishi, jamiyat hayotiga uyg'unlashuvi, ijtimoiylashuvi hamda shaxsiy hayotida muvaffaqiyatga erishishining zaruriy sharti ekanligi alohida ta'kidlanib, 2030-yilga qadar barcha shaxslarga maktabgacha, boshlang'ich, o'rta, yuqori va kasbiy-texnik tayyorgarlik pog'onalarida sifatli ta'lim olishlari uchun inklyuziv va teng ravishdagi sharoitlarni yaratishni rasman qabul qildilar.

Bundan tashqari, inklyuziv ta'limning huquqiy asoslari sifatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 638-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori hisoblanadi va u orqali inklyuziv ta'limni targ'ib qilish hamda tashkil etish tartibi belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 638-son qarori asosidagi inklyuziv ta'limning maqsadi, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo'llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to'siqsiz moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to'laqonli uyg'unlashuviga xizmat qiladigan sifatli umumiy o'rta ta'lim berishni ta'minlashdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 638-son qarori asosidagi inklyuziv ta'limning vazifalari:

1. Rivojlanishning turli imkoniyatlariga ega bo'lgan o'quvchilar uchun har qanday kamsitilishni istisno qiladigan, barcha bolalarga teng munosabatda bo'lishni ta'minlaydigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratish;
2. Jamoatchilik hamda ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar muammolariga nisbatan bag'rikenglik munosabatini shakllantirish;
3. Ta'lim jarayonida sog'lom bolalar bilan bir qatorda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning aqliy va ijtimoiy salohiyatlarini rivojlantirish;
4. Barcha o'quvchilar uchun davlat ta'lim standartlariga muvofiq umumiy o'rta ta'lim dasturlarini o'zlashtirish uchun imkoniyat yaratish;
5. O'quvchilarning har tomonlama rivojlanishi, emotsional-irodaviy sohasi, bilish faoliyatini faollashtirish, ijtimoiy ko'nikma va salohiyatini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
6. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga maslahat yordami berish hamda ota-onalarni farzandlariga ta'lim-tarbiya berish, pedagogik texnologiyalar, ta'lim-tarbiya metod va vositalarini qo'llash sohasida xabardorlik darajasini oshirish, ularni psixologik-pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash.

Jumladan, quyidagi imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarida statistikaning 2023-yil holatiga ko'ra 21000 dan ortiq maxsus maktab-internatlarida bolalar ta'lim olmoqdalar. Demak-ki ularning 56 % aqliy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar, 22 % kar va zaif eshituvchi bolalar, 16 % ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar, 6 % esa harakat-tayanchida nuqsoni bo'lgan va nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalardir.

Quyidagi ma'lumotlarni o'rganish jarayonida savol tug'iladi: "21000 dan ortiq bolalarning barchasi inklyuziv ta'lim jarayoniga kiritiladilarmi?" va "Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlari kelajakda o'z faoliyatini tugatadilarmi?"

Albatta yo'q, chunki inklyuziv ta'lim jarayoniga og'ir darajadagi bolalar qabul qilinmaydilar va imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlari qisqargan holatda o'z faoliyatlarini davom ettiradilar. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarining kelajakdagi faoliyatini quyidagicha tasavvur qilishimiz mumkin:

- imkoniyati cheklangan bolalar uchun maxsus maktab va maktab-internatlari inklyuziv ta'limga tayyorlab beruvchi muassasa sifatida xizmat qiladilar;
- mazkur ta'lim muassasalarida boshlang'ich sinflar saqlanib qoladi;
- ish o'rinlari yo'qolmayli, balki faoliyat o'zgartiriladi;
- nogironligi bo'lgan bolalar va ularni ota-onalarining istaklari inobatga olingan holda ta'lim shakli tashkil etiladi.

Inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga quyidagi toifadagi bolalar qabul qilinadi:

- eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar (eshitish qobiliyatining yo'qotilishi 60 Db gacha bo'lgan rivojlanishida qo'shimcha buzilishlar bo'lmagan bolalar);

- ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar (ko'rish qobiliyatining buzilishi 0,1 gacha bo'lgan rivojlanishida qo'shimcha buzilishlar bo'lmagan bolalar);
 - somatik kasalliklar (psixofizik va nutqning rivojlanish darajasi yoshiga mos kelmaydigan bolalar);
 - nutqida og'ir nuqsonlar bo'lgan bolalar (alaliya, dislaliya, afaziya, rinolaliya, dizatriya, psixik-nutqiy rivojidagi sustlik, duduqlanish);
 - tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar (bolalar tserebral falaji, skolioz, poliomyelit, miopatiya, osteomyelit, amputatsiya, bo'y o'sishining yetishmovchiligi - pakanalik);
 - aqliy rivojlanishi saqlangan holda tayanch-xarakat tizimidagi buzilishi bo'lgan bolalar;
 - aqliy rivojlanishi saqlangan yoki ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar (o'zi harakat qila oladigan yoki qo'shimcha moslamalar va nogironlik aravachasida harakatlana oladigan bolalar tserebral falaji);
 - intellektual rivojlanishning potensial buzilmagan imkoniyatlari bilan ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar;
 - xulq-atvor va ruhiyatning qo'pol buzilishlarisiz autistik spektri buzilgan bolalar;
 - intellektual rivojlanishi saqlanib qolgan, tutqanoq holatida bo'lgan bolalar (agar bola antikonvulsant dorisini qabul qilganda, tutqanoq 1 oyda 1-martadan oshmagan paytda).
- Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar umumta'lim maktablarida sog'lom bolalar bilan muqolot qilishda va o'qituvchining nutqini tushinishida to'siqlar kuzatiladi. Bu esa o'quvchilar o'rtasida o'ziga xos muhitni yaralishiga sabab bo'ladi. Shu qatorda ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarda ham uchrashi mumkin bo'lgan qator to'siqlarni sanab o'tishimiz mumkin. Masalan, tanaffus paytlarida sog'lom bolalar karidorlarda yuguradilar, o'ynaydilar va erkin ravishda harakatlanadilar. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar esa ularni ko'rmasligi oqibatida ularga turtilib yiqilib ketishi yoki zarba olishi mumkin. Bu esa yana o'z navbatida sinf o'quvchilari o'rtasida noqulayliklarni keltirib chiqaradi. Xuddi shunday muammolarga harakat-tayanchida nuqsoni bo'lgan bolalar ham duch kelishlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bola huquqlari to'g'risida Konvensiya. Xalqaro YUNISEF tashkiloti. – Toshkent, 1992. – 48 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni / O'RQ-637-son 23.09.2020 y.
4. O'zbekiston Respublikasining Qonuni/"Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi O'RQ-641-son 15.10.2020 y.
5. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi Qonuni". // – Toshkent, 2008.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. Toshkent sh., 2017 yil 1 dekabr, PF-5270-son.